



O'ZBEK TILI KECHA, BUGUN VA ERTANGI KUN.

Sevara Jo'raqulova Zamon qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Filologiya fakulteti talabasi

Tel: +998(94)303-17-06

Malohat Muhammadqulova Akmal qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Filologiya fakulteti talabasi

Tel: +998(88)005-79-06

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17374632>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilining rivojlanish jarayoni hamda uni yanada takomillashtirish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida so'z yuritiladi. XIX asrdan boshlab o'zbek tili sifatida shakllana boshlagan. XXI asrdan esa ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlari, ijtimoiy tarmoqlar va ta'lim platformalarida o'zbek tili keng qo'llanilmoqda. Maqolada, shuningdek, o'zbek tilining yutuqlari, olimlarning til taraqqiyotiga qo'shgan hissasi hamda bu boradagi boshqa ma'lumotlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: O'zbek tili, davlat tili, til siyosati, til islohotlari, lug'at yaratish, ommaviy axborot vositalari, globallashtirish, madaniy meros

Abstract: This article discusses the development process of the Uzbek language and the ongoing reforms aimed at its further improvement. The Uzbek language began to take shape as a distinct language in the 19th century. Since the 21st century, it has been widely used in mass media, internet networks, social media, and educational platforms. The article also analyzes the achievements of the Uzbek language, the contributions of scholars to its development, and other relevant information.

Keywords: Uzbek language, state language, language policy, language reforms, dictionary compilation, mass media, globalization, cultural heritage

Har bir millatning mavjudligi va yashab qolishini namoyon etuvchi omillar mavjud. Bu omillarning eng asosiylaridan biri — til. Til shunchaki muloqot vositasi emas, balki millatning ma'naviy va madaniy merosining toshoynasidir. Tilning rivoji va taraqqiyoti orqali millatning tarixi, adabiyoti va madaniy qadriyatlarini shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, tilni asrab-avaylash va rivojlantirish milliy taraqqiyotning ajralmas qismi hisoblanadi.

O'zbek tilining tarixiy rivojlanishi o'ziga xos bosqichlarga bo'linadi. XX asrda o'zbek tilini davlat tili darajasiga ko'tarish va uni ravnaq toptirish maqsadida Alisher Navoiy katta hissa qo'shgan. U o'zining "Xamsa", "Xazoyin ul-maoniy", "Muhokamatul lug'atayin" kabi asarlarini shu tilda yaratib, ona tilining adabiy va ilmiy imkoniyatlarini kengaytirgan. Shu bilan birga, Sulton Husayn homiyligi ostida Navoiy ishlarini qo'llab-quvvatlagan va maxsus farmon bilan o'zbek tiliga davlat tili maqomini berilgan. Bu holat o'zbek tilining tarixiy rivojlanishida muhim bosqich bo'lgan[3].

1991-yilda Sovet Ittifoqidan mustaqillikka erishilgach, O'zbekistonda o'zbek tili rasmiy davlat tili deb e'lon qilindi. Bu qaror milliy madaniyatni tiklash va ta'lim hamda davlat boshqaruvida rus tilining ta'sirini kamaytirishga xizmat qilgan. Shu davrda o'zbek tilida so'zlashuvchilar soni tahminan 16–20 millionni tashkil qilgan. Sovet Ittifoqining qulashidan so'ng o'zbek tili milliy til sifatida obro' qozongan va so'zlashuvchilar soni aholi o'sishi bilan ortgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, o'zbek tili — milliy ma'naviyatning bitmas-tuganmas manbai. Shu sababli, davlat tili rivoji yo'lida amalga oshirilayotgan chora-

tadbirlar yildan-yilga kengayib bormoqda. Bugungi kunda o'zbek tili siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy jabhalarda faol qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, xorijiy mamlakatlarda ham tilimizga qiziqish ortib bormoqda, turli ilmiy va madaniy loyihalarda o'zbek tilidan keng foydalanish kuzatiladi[1].

Globalashuv sharoitida har bir millat va mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini himoya qilish, shu jumladan o'z madaniyati, qadriyatlarini va ona tilini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratadi. Ona tilini rivojlantirish milliy birligini mustahkamlash, ijtimoiy hayotning turli jabhalarida o'z ifodasini topadi.

Davlat rahbarining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni millat tarixida tarixiy hodisa bo'ldi[4]. Ushbu farmon orqali uzoq yillar davomida to'planib qolgan muammolar bosqichma-bosqich hal qilinmoqda.

2020–2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Ushbu konsepsiya quyidagi asosiy vazifalarni o'z ichiga oladi:

- Ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalarida davlat tilining to'liq va to'g'ri qo'llanilishini ta'minlash;

- Ta'lim tizimida davlat tilini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish va uning ilm-fan tili sifatidagi mavqeini oshirish;

- Davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitish va aholining nutq madaniyatini rivojlantirish;

- Zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar orqali davlat tilini keng qo'llash;

- Xorijiy hamkorlik orqali o'zbek tilining xalqaro mavqeini oshirish;

- Mamlakatda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlar tillarini rivojlantirish uchun keng va teng imkoniyatlar yaratish.

Fanlar akademiyasi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi, jumladan:

- Ko'p jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati"ning yangi nashri (kirill va lotin yozuvida);

- "O'zbek tilining imlo lug'ati";

- "O'zbek tili sinonimlari lug'ati" va "O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati";

- "O'zbek tili frazeologizmlarining katta izohli lug'ati";

- "O'zbek tili omonimlari lug'ati".

Bugungi kunda davlat tilini rivojlantirish strategiyasi doirasida bir qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, umumta'lim maktablarida o'quv yillari uchun tayanch o'quv rejalarida o'zbek tili fanini haftada 84 soatdan 110 soatgacha oshirish belgilangan. Bu o'zbek tilining maktab ta'limidagi mavqeini mustahkamlash, o'quvchilarda til madaniyati va nutq madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili kafedralari sonini 2025-yilga qadar 120 taga, 2030-yilgacha esa 140 taga yetkazish ko'zda tutilgan. Bu chora-tadbirlar o'zbek tilining ilmiy tadqiqotlar va akademik faoliyatdagi mavqeini oshirishga, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida tilga oid kadrlar tayyorlash tizimini mustahkamlashga xizmat qiladi.



Bundan tashqari, lotin yozuvida "O'zbekiston milliy qomusi" jildlarini bosqichma-bosqich nashr etish rejalashtirilgan. Mazkur ish milliy tilning boy tarixiy va madaniy merosini saqlash, yangi avlod o'quvchilari va tadqiqotchilarga o'z ona tilimizdagi lug'at boyligini yetkazish hamda tilning sofligini saqlashga yordam beradi. Ushbu chora-tadbirlar o'zbek tilining barqaror rivojlanishini ta'minlash, til siyosatining samarali amalga oshirilishini kafolatlash va milliy identifikatsiyani mustahkamlashga qaratilgan muhim qadamlar sifatida baholanishi mumkin. Olimlarning fikricha, til yashab qolishi uchun undan kamida bir million kishi so'zlashishi kerak. Bunday tillar dunyoda atiga 250 tadan. O'zbek tili ham shu 250 til qatoriga kiradi. O'zbek tili boy tarixiy ildizlarga ega va zamonlar davomida takomillashib kelmoqda[2].

Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75- va 78-sessiyalarida o'zbek tilida ma'ruza qilishi milliy tilimizning xalqaro maydonda tan olinganligini ko'rsatadi va uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy mavqeini mustahkamlaydi[6].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Achilova N., "Zamonaviy ilm-fan va ta'lim istiqbollari" ilmiy-amaliy konferensiyasi.
2. Amirqulov, S. (2025). TILSHUNOSLIK TARAQQIYOTI VA INNOVATSION YONDASHUVLAR. XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR, 1(3), 118-120.
3. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili darslik. T.: "Moliya" nashriyoti, 2003. 272 b.
4. <https://lex.uz>
5. <https://uz.wikipedia.org>
6. <https://uza.uz>